Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

GLOBAL IQTISODIY INQIROZ SHAROITIDA MOLIYA SEKTORINING ROLI VA UNI ISLOH QILISH YO'NALISHLARI

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
1M-24 IQ, **G.D.MURODULLAYEVA**
Tel: 905017050

Annotatsiya: *Maqolada global iqtisodiy inqirozning mohiyati, sabablari va moliya sektoriga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Bank tizimi, kapital bozori va moliyaviy institutlarning iqtisodiyotdagi o‘rni, inqiroz sharoitida yuzaga keladigan risklar va likvidlik muammolari ko'rib chiqiladi. Moliya sektorini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari — raqamlashtirish, moliyaviy inklyuziya, risk-menejment, ESG tamoyillari va kapital bozorini rivojlantirish — o'zbekiston tajribasi misolida tahlil etiladi. Xulosa qismida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Global iqtisodiy inqiroz, moliya sektori, bank tizimi, kapital bozori, raqamlashtirish, moliyaviy inklyuziya, risk-menejment, ESG tamoyillari, O'zbekiston.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti tarixida turli ko‘lamdagi moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar ro‘y berib kelgan. 1929–1933-yillardagi Buyuk depressiya, 1997–1998-yillardagi Osiyo moliyaviy inqirozi, 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz va 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi turtki bo‘lgan iqtisodiy tanazzul — bularning barchasi jahon moliya tizimining o'ta sezgir va bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini yana bir bor isbotladi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda jahon YaIMi 3,1 foizga qisqardi va bu 1930-yillardan keyingi eng katta iqtisodiy tanazzul bo‘ldi [1].

Global iqtisodiy inqirozlar o‘zining murakkab tabiati va ko‘p qirrali ta’siri bilan moliya sektorini doimiy sinovga soladi. Moliya sektori — bank tizimi, kapital bozori va moliyaviy institutlar majmuasi — iqtisodiyotda qon-tomir tizimi vazifasini bajaradi: mablag'larni jalb qiladi, taqsimlaydi, investionv jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Aynan shu sababli inqiroz davrida moliya sektori ham eng ko'p ziyon ko'ruvchi, ham tiklash jarayonining kalit harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqadi.

Global iqtisodiy inqirozlar nazariyasi va moliya sektorining roli bo'yicha xalqaro hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiqotlar mavjud. Bu sohadagi fundamental ishlarni bir necha yo'nalishga ajratish mumkin.

Keyns (Keynes, 1936) o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asarida iqtisodiy inqirozlarning agregat talab pasayishi bilan bog'liqligini asoslab berdi va davlat aralashuvi zarurligini ta'kidladi [2]. Friedman va Schwartz (1963) AQSh moliyaviy tarixini o'rganib, pul massasining keskin

Published: 05.06.2026

Cite this article: G.D. Murodullayeva (2026). Global iqtisodiy inqiroz sharoitida moliya sektorining roli va uni isloh qilish yo'nalishlari. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/854

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qisqarishi inqirozni chuqurlashtirishi mumkinligini isbotladi [3]. Minski (Minsky, 1986) o'zining moliyaviy beqarorlik gipotezasida kredit pufaklari hosil bo'lishi va portlash natijasida yuzaga keladigan inqirozlar mexanizmini batafsil tushuntirdi [4].

Moliya sektori iqtisodiyotda bir necha muhim funksiyani bajaradi. Birinchidan, vositachilik funksiyasi — bo'sh mablag'larni jamlab, ularni investitsiyaga muhtoj sohalarga yo'naltiradi. Ikkinchidan, to'lov tizimi — tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitob qilish infratuzilmasini ta'minlaydi. Uchinchidan, risk taqsimoti — boshqaruv vositalari orqali riskni ko'pchilik o'rtasida taqsimlaydi. To'rtinchidan, narx signali — kapital narxini aniqlash orqali resurslarning samarali taqsimlanishiga yordam beradi.

Bank tizimi moliya sektorining asosini tashkil etadi. U depozitlarni jalb qilib, kredit berish orqali multiplikator effekti vositasida pul massasini kengaytiradi. Bank kredit portfeli iqtisodiy faollikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda 2023-yil 1 yanvar holatiga ko'ra bank tizimi aktivlari 409 trln so'mdan oshdi — bu YaIMning 60 foizidan ko'proqni tashkil etadi [14]. Kredit portfeli hajmi ham 2019-2023-yillar davomida o'rtacha yiliga 25 foizga o'sdi. Biroq bank kreditlari YaIMga nisbati rivojlangan mamlakatlarda 100-200 foizni tashkil etishiga qaramasdan, O'zbekistonda bu ko'rsatkich hali nisbatan past darajada turibdi.

Kapital bozori — aktsiya va obligatsiyalar bozori — uzoq muddatli moliyalashtirishning asosiy manbayi. U iqtisodiyotda ikki muhim funksiyani bajaradi: korporatsiyalarga kapital jalb qilish imkonini beradi va investorlarga mablag'larini samarali joylashtirish vositasini taqdim etadi. O'zbekiston fond bozori (Toshkent fond birjasi) oxirgi yillarda jadal rivojlanmoqda: 2022-yilda birjada jami bitimlar hajmi 15 trln so'mdan oshdi [5]. Biroq bozorning kapitallashuvi YaIMga nisbati hali past — rivojlangan mamlakatlarda bu 100 foizdan yuqori bo'lsa, O'zbekistonda hali bir necha foiz atrofida.

Sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, kredit kooperativlari, moliyaviy lizing kompaniyalari va mikrokredit tashkilotlari moliyaviy institutlar tarkibiga kiradi. Ular bank tizimini to'ldirib, moliyaviy xizmatlarning turli-tumanligini ta'minlaydi. O'zbekistonda sug'urta bozori 2023-yilda yalpi yozilgan premiyalar bo'yicha 3,5 trln so'mdan oshdi, ammo bozorning YaIMga nisbati 0,5 foiz atrofida — bu jahon o'rtacha ko'rsatkichidan 3-4 barobar past [6].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Global iqtisodiy inqirozlar moliya sektorini tizimli ravishda zaiflashtirib, real iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq islohotlangan va modernizatsiya qilingan moliya sektori inqirozga qarshi kurashning eng samarali vositasiga

aylanishi mumkin. O'zbekiston o'tkazayotgan islohotlar to'g'ri yo'nalishda ketmoqda, ammo bu yo'lda hal qilinmagan masalalar ko'p.

Moliya sektori barqarorligini ta'minlash va global inqirozlarga chidamlilikni oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Bank tizimini xususiylashtirishni jadallashtirishni tavsiya etamiz. Davlatga tegishli banklarning bozor ulushini 2030-yilga qadar 50 foizga tushirish banklararo raqobatni kuchaytiradi, xizmat sifatini yaxshilaydi va kredit resurslarining samaraliroq taqsimlanishini ta'minlaydi. Buning uchun xususiylashtirish dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish, strategic investor jalb qilish va korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

Kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha alohida kompleks dastur ishlab chiqish kerak. Unda xususiy kompaniyalarni fond bozoriga olib chiqishni rag'batlantirish (IPO uchun soliq imtiyozlari), institutsional investorlar (pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari) bazasini kengaytirish, derivativlar va boshqa murakkab moliyaviy vositalar bozorini shakllantirish nazarda tutilishi lozim.

Moliyaviy inklyuziyani chuqurlashtirish uchun maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish zarur. Ayniqsa qishloq joylarda, xotin-qizlar va yosh tadbirkorlar orasida bank xizmatlaridan foydalanishni oshirish, agent banking

Xulosa qilib aytish mumkinki, global inqirozlar muqarrar hodisadir. Ammo ularning ta'sirini yumshatish ko'p jihatdan moliya sektorining barqarorligi, innovatsionligi va inkluzivligiga bog'liq. O'zbekiston olib borayotgan islohotlar to'g'ri yo'nalishda bo'lib, muvaffaqiyatli davom ettirilishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Monetary Fund (2020). World Economic Outlook: A Long and Difficult Ascent. IMF, Washington D.C.
2. Keynes, J.M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. Macmillan, London.
3. Friedman, M., Schwartz, A. (1963). A Monetary History of the United States, 1867–1960. Princeton University Press.
4. Minsky, H. (1986). Stabilizing an Unstable Economy. Yale University Press.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Moliyaviy barqarorlik to'g'risida hisobot 2022. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Yillik hisobot 2023. Toshkent.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA BANDLIKNING O‘SISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH

TURSUNOVA MANZURAXON XOJIAKBAR QIZI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Statistika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 4-bosqich bitiruvchi talabasi

Annotatsiya. So‘nggi yillar mobaynida jahon miqyosida xizmat ko‘rsatish sohasiga bo‘lgan talab ortib, o‘sib borish tendensiyasini yaratmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatlar istiqbolini belgilab, yetakchi pog‘onali davlatlar qatoridan o‘rin egallashiga xizmat qiladi. Biz bu tadqiqot yordamida bandlikning sektorlarda rivojlanganligini, huquqiy jihatdan qarorlar va ularning ijrosini, o‘rganilayotgan mavzu doirasidagi termin va tushunchalarni, tadqiqotni o‘rganish uchun hissa qo‘shgan professor-o‘qituvchilarning ilmiy ishlarini, tadqiqotning nazariy, ilmiy asoslarini, iqtisodiyotning negizidagi rolini, ahamiyati qanchalik muhim ekanligini jahon va mamlakatimiz miqyosida o‘rganamiz.

Аннотатции: В последние годы спрос на услуги вырос и создает устойчивую тенденцию во всем мире. Это, в свою очередь, определяет перспективы стран и помогает им занять место среди ведущих стран. В рамках данного исследования мы изучим развитие занятости в различных секторах, правовые решения и их реализацию, термины и понятия в рамках изучаемой темы, научные работы профессоров и преподавателей, внесших вклад в исследование, теоретические и научные основы исследования, его роль в экономике и его значение как в глобальном масштабе, так и в нашей стране.

Annotation: In recent years, the demand for the service sector has increased and is creating a growing trend worldwide. This, in turn, determines the prospects of countries and helps them take their place among the leading countries. With the help of this study, we will study the development of employment in sectors, legal decisions and their implementation, terms and concepts within the scope of the topic under study, the scientific works of professors and teachers who contributed to the study, the theoretical and scientific foundations of the study, its role in the economy, and how important it is, both globally and in our country.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, ijtimoiy soliq, bandlikning o‘sishi, aholi soni, eng yuqori ko‘rsatkich, xizmatlar joylashuvi indeksi, raqamli boshqaruv yetuklik indeksi, elektron ishtirok indeksi, turistlar oqimi, turizm infratuzilmasi, rasmiy qarash, iqtisodiy qarash, sektor, ishlab chiqarish xarakteri, band, endogen, ekzogen, reflektor, innovatsion muhit.